

HUQUQIY MAFKURA: BUGUNGI JAMIYATDAGI AHVOLI

Sayitxoniva Barchinoy Axatovna

Tarix fani o'qituvchisi

Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna

Davlat va huquq asoslari o'qituvchisi

Axmatquliva Barnoxon O'ktamjonovna

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada huquqiy madaniyatni shakllantirish qanchalik muhim ekanligi va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatli ekanligi ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy mafkura, huquqiy ong, qonuniylik, ijtimoiy tartibot, jamiyat, huquqiy normalar.*

Bugungi kunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning yeng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xalqning huquqiy madaniyat bu huquqqa bo'lgan oddiygina munosabatni yemas, balki huquqiy normalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini bildiradi. Qonunga, uning normalariga hurmat esa ularning to'laqonli ishlashi, ular oldida hamma teng bo'lishini taqozo yetadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bu borada inson va fuqarolarning teng huquqli yekanligini kafolatlangan bo'lsa-da, fuqarolarimiz tomonidan, davlat va davlat boshqaruvi organlari xodimlari tomonidan hali hanuz o'z huquqlarini to'g'ri va to'liq anglab yetmaganliklari oqibatida mamlakatimizda turli xildagi huquqbazarliklar sodir etilib kelinmoqda. Afsuski, bu holatni ham yoshlar, ham yoshi kattalar, ham ayollar, ham erkaklar orasida kuzatishimiz mumkin. Shu maqsadda, demoqchimizki xalqimizning huquqiy ongini rivojlantirish va ularda huquqiy madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish suv va havodek zarur. Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda 100 ming aholiga o'rtacha 13,3 ta jinoyat to'g'ri keladi (bu ko'rsatkich Tojikistonda - 40, Ozarbayjonda - 44, Moldovada - 150, Rossiyada - 225, Qozog'istonda - 240 tani tashkil yetadi). O'zbekiston jinoyatchilik ko'rsatkichi bo'yicha har yuz ming aholi soniga nisbatan jinoyatlar soni yeng kam bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Bu borada nufuzli "Xalqaro huquqiy baholash" nodavlat agentligining 2019 yil uchun berilgan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 126 ta mamlakat ichida "Tartib va xavfsizlik" indikatori bo'yicha 9-o'rinni egallaydi. Bu esa, mamlakatimizda huquqbazarliklarni kamaytirish, aholi huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish borasida islohotlar to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni

tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida 2019-yil yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" Farmonini keltirishimiz mumkin. Mazkur Farmonga ko'ra, vazirlik va idoralar rahbarlari Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar yekanliklari belgilab qo'yilgan va barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga tegishli topshiriqlar berilgan. Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, yeng avvalo, huquqiy ta'lif va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining samarali ishtirokini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovasion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy yetish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish muhim sanaladi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirishda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari balki, Sud organlari xodimlari, ta'lif muassasalari xususan Oliy ta'lif muassasalari tizimli ishlarni tashkil yetishlari lozim. Bu borada Farmonda nazarda tutilgan "shaxs - oila - mahalla - ta'lif muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yeng asosiysi, olib borilayotgan ishlarni tizimli va mas'uliyat bilan yondashgan holda amalga oshirish har birimizning fuqarolik vazifamiz yekanligini unutmasligimiz lozim.

Ijtimoiy tartibot - bu jamiyat a'zolari o'rtasida mujassamlashgan barkaror ijtimoiy munosabatlar tizimi bo'lib, sotsial adolat g'oyalarini ifodalovchi, normativ tartibga solish tizimining butun ta'siri natijasida turmush tarzi sifatida tasdiqlangan munosabatlardir.

Huquqiy tartibot ijtimoiy tartibotning bir qismi bo'lib xisoblanadi, faqat ubarcha sosial normalarning reguliyativ xarakati natijasida mujassamlashmasdan, balki fakatgina huquq normalari orqali mujassamlanadi.

Shunday yekan, huquqiy tartibot - bu huquq normalari tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimining bir qismidir.

Uning xarakat doirasida huquq normalari orqali tartibga solinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yotadi.

Huquqiy tartibot o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat :

Huquq normalarida rejalshtirilgan; Ushbu normalarni tatbiq etish natijasida yuzaga keladi; Davlat tomonidan ta'minlanadi; Ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirilishi uchun sharoit yaratadi, insonni ancha erkin, (mustaqil) qilib, hayot sharoitini yengillashtiradi; Qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga chiqadi;

Qonuniylik huquqiy tartibot bilan o'zviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy munosabatlar orqali tartibga soladi. Kishilar o'rtasidagi yoki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidaga munosabatlar huquqiy tartibot bilan ya'ni, huquqiy no'rmalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi. Qonuniylikning o'ziga xos xususiyatlari uning quyidagi prinsiplarida ifodalanadi.

Qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi. Bunday O'zbekiston Respublikasini barcha qonunlari va barcha normalari mukaddas bo'lib, ularga barcha kishilar amal q'ilish kerak. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini 15-moddasida mustahkamlangan. «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamiyat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiyasi va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

Respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonni yangi jamiyat ko'rish uchun, bozor iqtisodiga utish uchun hamma kishining qonunga amal q'ilishligini muhim pirinsip deb hisoblab, «Men uchun eng muhim -qonuniylikni hurmat q'ilishdir», deb ko'rsatadi.

Qonuniylikni yagonalik prinsipi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining huquqiy qonunlar bir hil qo'llainishini, hamma fuqarolar qonun oldida tenglikni bildiradi. Bu hakda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida shunday deyilgan. «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ye'tiqodi, shahsi va ijtimoiy mavqyeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir».

O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni aniq bajarish har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdar shahs va fuqarolar uchun shartdir. Ammo hayotda shunday kishilar va rahbarlar borki, ular o'zlarining qonunga hilof xatti-harakatlarini, go'yo qonunning eskirib qolganligi bilan va bugungi kun talablariga javob bera olmasligi bilan yohud bu qonunda mahalliy sharoit hisobga olinmagan degan bahonalar bilan bajarmaydi. Basharti amaldagi qonunlar eskirib qolganbo'lsa, u belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi Oliy Majlis tamonidan o'zgartiriladi.

Qonuniylik aholining madaniy darajasi bilan, davlat organlari va jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa qonun buzilish hollari shunchalik kamroq bo'ladi.

Kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlanirish, shuningdek Respublikada huquqiy ta'limni yanada rivojlantirish maqsadida uchun «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida » O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2020-yil 29-aprelda qabul qilindi.

O'zbekistonda xalq qonuniylikni ta'minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng ishtirok etadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 7- moddasida shunday deyilgan; «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikai Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beorgan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Qonuniylik demokratiya bilan uzviy bog'liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o'zi ishonch bildirib, saylagan deputatlari, davlat Prezidenti, hokimiyat va boshqaruv organlari orqali boshqaradi. Qonuniylikni demokratik tartiblarga bo'ysunishini talab qiladi, demokratik tartiblar o'z navbatida qonuniylikni mustahkamlash va rivojlanishida asosiy shartdir. Bu tamoyil Konstitusianing 13-moddasida belgilab qo'yilgan; «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, kadr-kimmati va boshqa daxlsiz huquqlari Oliy qadriyat hisoblanadi.

Democratik huquq va erkinliklar Konstitusiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».

Jamiyatda qonunlar bilan kishilar O'zbekiston Respublikasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinib qonunlar hayotda to'g'ri qo'llanish uchun qonuniylikni tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bunday usullar davlat tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniylikni kafolati deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida qonuniylik va huquqiy tartibotni buzgan kishilarga nisbatan mahsus usullar qo'llaniladi. Bu ishontirish va majbur qilish usullaridir. Ishontirish usuli keng xalq ommasiga qonunlarni va huquqiy normalarni tushuntirish orqali, bularning ular onging yetkazish yo'li bilan va boshqa tarbiyaviy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. Majbur qilish usulida qonunlar va boshqa huquqiy normalar buzilgan holda davlat organlari tomonidan uning kuchi bilan majburiy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat ko'rish uchun qonuniylik va huquqiy tartibotni amalga oshirish va mustahkamlash uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar; sud, prokratura, ichki ishlar, adliya va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni qurishning zarur sharti qonunlarga so'zsiz itoat etishdir.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Huquqiy demokratik davlat qurishda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilimlarni mukammal egallaganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mukammal ta'lim-tarbiya olgan avlod hech qanday huquqbazarlik yoki jinoyatlar k o'chasiga kirmaydi. Shuningdek, turli yot g'oyalar ta'siriga tushmaydi.

Yurtimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan yana biri — qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning o'zagini tashkil etadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz aholisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhim. Inson o'zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o'rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo'lishi lozim. O'tgan yillar mobaynida o'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlandi.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog' liq. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi omildir.

Inson huquqlari va uni himoya qilish masalalarini hal qilishda davlatlar huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ularda ishlab chiqilayotgan yuridik hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, huquqiy targ'ibot — jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini fuqarolarga, ommaga yetkazishga qaratiladigan ma'rifiy va targ'ib usullaridir. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibotning ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga ham bog'liq. Demokratik davlat qurilishi jarayonida qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiyadolat qaror topishini ta'minlash muhim shartlardan sanaladi. Bu borada davlatimiz rahbarining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatni darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash to'g'risida"gi farmonini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur farmonda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy tarbiyani yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ning 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, deklaratsiyaning 4, 21-moddalarida ham ushbu qoidalar kengroq ifodalangan. Unda fuqarolik va siyosiy huquqlar, ya'ni qullik yoki qaramlikdan saqlanish huquqi, azob-uqubatga yoki jazoga duchor bo'lmaslikning huquqiy normalari mustahkamlangan. O'zboshimchalik bilan qamoqqa olish, ushlab turish va quvg' in qilinishdan saqlanish, qo'yilgan aybning asoslanganligini aniqlash uchun tenglik asosidagiadolatning barcha talablariga rioya qilish va uning tenglik, ya'ni sud tomonidan xolisona ko'rib chiqilishi tartibga solingan.

Har qanday jamiyatning, huquqiy manfaatlaridan kelib chiqib, inson huquqlarini himoyalashga asoslangan asosiy qonuni, ya'ni Konstitutsiyasi bo'lishi kerak. Konstitutsiya, avvalo, inson huquqlarini himoya qilishi hamda davlat mafaatlariga mos kelishi shart. O'zbekistonning Bosh qomusi — Konstitutsiyamizda fuqarolar mafaatlari barcha narsadan ustun ekanligi ta'minlangan. Shuningdek, konstitutsiya fuqarolar va davlat xavfsizligini ta'minlaydigan yagona mukammal huquqiy hujjat sanaladi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning manfaati aynan Konstitutsiya orqali himoya qilingan. Jumladan, Asosiy qomusimizning 24-moddasida belgilab qo'yilganidek, «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir». Shu bilan birga Konstitutsiyamizning 28-moddasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir», deb ta'kidlanadi. Bosh qomusimizning 40-moddasida esa, «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega»deb ko'rsatilgan. 41-moddasi ta'lim-tarbiyaga qaratilgan. Ya'ni ushbu moddada har kim bilim olish huquqiga ega, har bir fuqaroning bepul umumiyligi ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlanishi va maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. -T.: TDYUI, 2004.
2. Mahmudov R. Huquq va madaniyat. - Toshkent, O'zbekistion, 1993.
3. Karimov.I. A., O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996; Barkamol avlod orzusi, T., 1999.
4. "Xalq so'zi" gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>